



## DAVLAT XARIDLARI: JORIY HOLAT TAHLILI

*Husanov Qobuljon Muxiddinovich,  
Jamoat xavfsizligi universiteti Magistratura tinglovchisi*

*Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li,  
Jamoat xavfsizligi universiteti Magistratura tinglovchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda davlat xaridlari, ularni amalga oshirish turlari, iqtisodiyotda davlat xaridlarining ahamiyati, mamlakatimizda davlat xaridlari tizimining joriy holati va uni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek mavjud muammo hamda kamchiliklar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** davlat xaridlari, davlat buyurtmachilari, budjet va korporativ xaridlar.

### KIRISH

Davlat budjeti davlatning markazlashtirilgan pul mablag'lari bo'lib, unda daromad manbalari va ulardan tushadigan tushumlar, shuningdek xarajat hajmi va yo'nalishi o'z aksini topadi. Davlat xarajatlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida davlat xaridlari muhim ahamiyatga ega hamda u davlatning o'z vazifa va funksiyalarini amalga oshirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

### ASOSIY QISM

Davlat xaridi davlat infratuzilmasini moddiy-moliyaviy ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Davlat infratuzilmasini umumiy tarzda ikkita yirik tarkibiy qismga ajratish mumkin:

1. Iqtisodiy infratuzilma (transport, maishiy xizmatlar, kundalik iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun birlamchi bo'lgan infratuzilmalar).
2. Ijtimoiy infratuzilma (maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar yoki boshqacha qilib aytganda, jamiyat kundalik hayoti uchun birlamchi infratuzilmalar). Ijtimoiy sohalarga davlat xaridini amalga oshirish zarurati jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi.



*Davlat xaridlari* – budget tizimi budgetlarining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan tovarlar, ish va xizmatlar xaridlaridir. Boshqa so‘z bilan aytganda, *davlat xaridlari* - tovar (ish, xizmat)larni davlat buyurtmachilari tomonidan pulli asosda olish hisoblanadi. Davlat xaridlarini mohiyatini to‘liq tushunishda uning vazifalariga e‘tibor berish lozim.

Davlat xaridlarining vazifalari davlat boshqaruvi faoliyati uchun zarur tovar, xizmat va ishlar bilan o‘z vaqtida, kerakli miqdorda va turda, cifatda hamda narxda ta‘minlashdan tashqari raqobatni rivojlantirish uchun davlat xaridlariga ko‘proq tadbirkorlik cub‘ektlarini jalb qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot cifatini yaxshilash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro andozalarga moc cifatli mahsulot ishlab chiqarishga undashdan iboratdir. Bu vazifalarni amalga oshirish orqali mamlakat iqtisodiyoti rivojiga hamda ijtimoiy sohadagi ijobiy o‘zgarishlarga ta‘sir ko‘rsatish mumkin bo‘ladi.

Davlat xaridlari bozor elementi hisoblanib, uning yordami bilan iqtisodiyotning turli sohalarida mablag‘larni taqsimlash va samaradorligini oshirish sodir bo‘ladi. Bu esa davlat xaridlari sohasiga e‘tiborli bo‘lishni va uni rivojlantirishni talab qiladi, bunda albatta tizimli yondashuv zurur. Respublikamizda davlat xaridlari tizimini shakllantirish va takomillashtirish maqsadida islohotlar o‘tkazishga katta ahamiyat berilmoqda. Ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2018 yil 9 aprelda “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi, xaridlar jarayonining ochiq va shaffof o‘tkazilishini hamda budget mablag‘laridan samaralifoydalanilishini ta‘minlash, tadbirkorlik sub‘ektlari o‘rtasida sog‘lom raqobatni kuchaytirish uchun elektron xaridlar tizimi amaliyotga joriy qilindi.

“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, davlat buyurtmachilari deganda, davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar tushunilib, ular quyidagilar hisoblanadi:

- *budget buyurtmachilari;*
- *korporativ buyurtmachilar.*

Budget va korporativ buyurtmachilar davlat xaridlarini amalga oshirishda shartnoma summasidan kelib chiqib, besh turdagi davlat xaridlarini amalga oshirishlari mumkin, ya‘ni:



- 1)elektron do‘kon;
- 2)boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion;
- 3)tanlov;
- 4)tender;
- 5)yagona yetkazib beruvchi bilan amalga oshiriladigan davlat xaridlari.

Quyidagi jadvalda xarid qilish tartib-taomillarining turlari bo‘yicha shartnoma summalariga ko‘yilgan me‘yorlar aks ettirilgan.

Xarid turi	Xarid predmeti	Budjet buyurtmachisi	Korporativ buyurtmachi
		Bir shartnoma bo‘yicha qiymati (BHMda)	
Elektron do‘kon	tovar	25 gacha	250 gacha
		Bir yilda 2500 gacha	
	ish, xizmat	25 gacha	25 gacha
Auksion	tovar	2500 gacha	5000 gacha
Tanlov	tovar	2500 dan 6000 gacha	5000 dan 25000 gacha
	ish, xizmat	25 dan 6000 gacha	25 dan 25000 gacha
Tender	tovar	6000 dan ortiq	25000 dan ortiq
	ish, xizmat		

### 1-jadval. Davlat xaridlarini amalga oshirish turlari bo‘yicha mezonlar

*(“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun asosida muallif tomonidan tayyorlandi)*

Yagona yetkazib beruvchi bilan tovar (ish, xizmat)lar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuziladi.

### XULOSA VA MUNOZARA

Ma‘lumki, elektron do‘konda tovar (ish, xizmat)ning qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravarigacha, auksionda esa faqat tovarlarning qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining 2500 baravarigacha bo‘lishi kerak. Shundan kelib chiqqan xolda, fikrimizcha, yuqorida keltirilgan qonunning 44-moddasini faqat ish, xizmatlar uchun tadbiq qilinishini, tovarlar xaridi esa auksion orqali amalga oshirilishi zarurligini belgilab ko‘yish lozim.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi.



2. O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 apreldagi “Davlat xaridlarito‘g‘risida”gi O‘RQ-472-son qonuni.

3. Burxonov U., Atamuradov T. Davlat xaridi. –T.: “Fan va texnologiya”.2012.-152 b.

4. Sheshukova T.G. Sistema gosudarstvennykh zakupok: ponyatie, vliyanie na ekonomiku//Международный бухгалтерский учет. 2018. Т. 21, № 5. S. 520-527.

5. O‘roqov U. Davlat xaridlari tizimi: kecha va bugun. «Bozor, pul vakredit» jurnali, 8-son, 2018 y.

6. Рашидов, Д. (2023). Давлат-хусусий шерикликда таваккалчилик турлари. *Scienceweb academic papers collection*.